

**TURLI RATSIONLAR TARKIBINING SOVLIQLAR
ORGANIZMIDAGI TO'YIMLI MODDALARNING HAZMLANISHIGA
TA'SIRI**

O'rolboev Navruzбек Mirtoza o'g'li- Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti tel:(+99893 300 75 42)

Email: orolboyevnavroz841@gmail.com

***Annotatsiya.** To'yimli moddalarning hazmlanishiga Sovliqlar tomonidan iste'mol qilingan oziqalarning fizik holati, turi, qo'ylarning yoshi ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Sovliqlarning yoshiga qarab oziqalarning hazmlanish darajalari 120-200 kunlik qo'zilarida farq qiladi. Hazm organlarida oqsillar, uglevodlar va yog'larning hazmlanish jarayonlari bosqichma-bosqich borishi va kletchatkaning hazm qilish ko'rsatkichi pastligi nisbatan kletchatkaga boy bo'lgan ozuqalar kamaytilishi hazmlanishni osonlashtiradi.*

***Kalit so'zlar.** Fitofagiya, koprofagiya, kletchatka, moddalar almashinuvi, azotsiz ekstraktiv moddalar, hazmlanish koeffitsiyenti, simbiosenoz, protein, selluloza.*

***Аннотация.** Овцы потребляют питательные вещества для пищеварения. физическое состояние, тип и возраст овцы также имеют большое значение. Возраст овцы В зависимости от уровня переваривания полезных веществ у ягнят от 120 до 200 дней. В органах пищеварения постепенный процесс переваривания белков, углеводов и жиров и продукты с относительно высоким содержанием клетчатки и низкой усвояемостью сокращение облегчает пищеварение.*

***Ключевые слова.** Фитофагия, копрофагия, клетчатка, метаболизм, безазотные экстракты, усвояемость, симбиоз, белок, целлюлоза.*

***Annotation.** Consumed by sheep for digestion of nutrients the physical condition, type, and age of the sheep also have a significant effect. The age of the sheep Depending on the level of digestion of nutrients in lambs from 120 to 200*

days. In the digestive organs the gradual process of digestion of proteins, carbohydrates and fats and foods that are relatively high in fiber with low fiber digestibility reduction facilitates digestion.

Key words. *Phytophagy, coprophagia, fiber, metabolism, nitrogen-free extractives, digestibility, symbiocenosis, protein, cellulose.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2017 yil 16 martdagi PQ-2841-son "Chorvachilikda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish dolzarb masalalardan biridir. Qorako'l qo'ylarning go'shti o'zining juda yuqori to'yimlilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qo'ylar go'shtining oqsili iste'mol qilinganda uning 80%i organizm tomonidan o'zlashtirilsa, qoramol go'shtiniki faqatgina 62% ni tashkil qiladi. Qo'ylar go'shti kalloriyaga boyligi uchun kamquvvaqt insonlarga tavsiya etiladi, chunki uning tarkibida yuqori darajada xolestirin saqlanadi va boshqa hayvonlardagiga nisbatan yuqori darajada oqsil ham saqlanadi. Qo'ychilikning muhimligi jihatdan ikkinchi mahsuloti – teridir, u mamlakatning mo'ynachilik ashyosining kattagina ulushini tashkil qiladi. Ulardan turli mo'ynali kiyim - kechaklar tayyorlash uchun, o'zining tabiiy rangi bilan ham yoki turli qimmatbaho mo'ynali hayvonlar rangining imitatsiyasini berib ham foydalaniladi.

Qo'ylarlar ratsioniga klechatkaga boy, dag'allashgan oziqalarning qo'shilishi, ular organizmida kechayotgan hazm jarayonlariga tormozlovchi ta'sir ko'rsatishi mumkin, bu esa ratsion tarkibidagi barcha to'yim li moddalarning hazmlanishiga va o'zlashtirilishiga ta'sir ko'rsatadi. Oziqalarning hazmlanish koeffisientining oshishida, hayvonlar ishtahasining ahamiyati juda katta. Oziqalarning hidi, ta'mi, ularning tayyorlanish texnikasi, o'z vaqtida oziqlantirish ishtahaning yaxshilanishini ta'min etadi hamda oziqalarning

o'zlashtirilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Turli oziqalarning to'yimliliği ratsion tarkibiga qarab o'zgarib turadi, ya'ni turli oziqalarning bir-biriga bo'lgan nisbatiga qarab o'zgaradi. Qo'ylar to'rt kamerali murakkab funksiyali me'dalarga ega va ko'r ichak juda yaxshi rivojlanmagan, lekin dag'al oziqalarni (hattoki quritilgan no'xat va boshqa donlar) hazmlash qobiliyati kavshovchi hayvonlarnikidan bir muncha yuqori. Qo'ylarni oziqlantirishda qo'ychilikning ushbu jihatlarini ham hisobga olish zarurdir. Qator tajribalarda aniqlanishicha, turli oziqalardan iborat ratsion bilan oziqlantirilganda, ratsion tarkibidagi klechatkaning miqdori kamayadi, suli somonida esa, to'yimli moddalarning umumiy miqdori bor-yo'g'i 23% ni tashkil etadi. Sovliqlar o'zlarining yuqori darajada jadal o'sishi, va tez yetishuvchanligi bilan ajralib turadi. Shu bois ular yetarli miqdorgacha to'yimli va mineral moddalarga va vitaminlarga ehtiyoj sezadilar. To'g'ri oziqlantirish deganda, kam miqdorda ozuqa xarajatlari hisobiga yuqori darajadagi mahsulot birligiga ega bo'lish va quyonlarni yaxshi salomatlik holatini ta'minlaydigan oziqlantirish tushuniladi. Yetarlicha oziqlantirmaslik hayvonlar organizmi uchun xavfli bo'lgani singari, me'yoridan ortiq oziqlantirish ham xavflidir. Norma asosida oziqlantirilganda, quyonlarning fiziologik holati, ularning tirik vazni, mahsuldorligi va yil fasllari hisobga olinadi. Boshqa qishloq xo'jalik hayvonlari singari qo'ylar dalada va yaylovlarda aylanib yurish imkoniyatidan mahrumdir. Qo'ylarning bu jihati ularni oziqlantirishni to'la qimmatli bo'lishini to'g'ri tashkil qilish muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, qo'ylarni oziqlantirishda faqat bitta pichandan foydalanish, ratsion tarkibidagi klechatkaning hazmlanishi koeffisenti ancha past bo'lganligi sababli yaxshi samara bermaydi. Qo'ylarga suvli somoni oziqlantirilganda juda yomon hazmlanadi. Qo'ylar organizmning mo'tadil faoliyati ularning o'sish va rivojlanishi hamda turli kasalliklarga chidamliligi oziqlantirishni to'la qimmatli va to'g'ri tashkil qilinishiga bog'liqdir. To'g'ri va tartibli oziqlantirish – yaxshi sifatli teri va go'sht olishning asosi hisoblanadi. Oziqlantirish to'g'ri tashkil qilinsa, o'rganilayotgan har qanday zotni

sifat ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Калугин Ю.А. Влияние разных рационов на переваримость питательных веществ и обмен азота у крольчих / Ю.А. Калугин // Сб. науч. трудов ВНИИПЗиК. - 1978. - С. 24-27.
2. Калугин Ю.А. Физиология питания кроликов / Ю.А. Калугин / - М.: Колос, 1980. -С.
3. Калугин Ю.А. Снова об уровне клетчатки / Ю.А. Калугин // Кролиководство и звероводство. - М., 1981. № 1. - С. 18.